Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24318394

materiallar to'plami

TEXNIKA FANLARINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH.

Raxmonov Abduxalim Toshpo'lat o'g'li, assistent,
Jamoliddinov Fayozbek Abduvohid o'g'li, talaba,
Farg'na politexnika instituti.

Anotatsiya: Ushbu maqolada texnik ta'lim yo'nalishlarida o'qitish muammolarining echimi sifatida, o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnida samarali foydalanish ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim jarayoni, amaliy ko'nikmalar, nazariy bilimlar, zamonaviy ta'lim, pedagogik mahorat, yangi pedagogik texnologiyalar.

Texnik ta'lim yo'nalishlarida o'qitish muammolarining echimi sifatida ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlash choralarini ko'rish, talabalarni nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarini oshishirib borish, shu bilan birgalikda o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnida samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda dasturning mukammalligi, darslik hamda qo'llanmalarning zamonaviy talablar asosida yaratilganligi, o'quv rejasi mohiyati nazariy va amaliy xususiyatlariga ko'ra yagona maqsadga erishish uchun xizmat qilishi, mashg'ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik shart- sharoitlarning mavjudligi, o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasida ijobiy, samimiy munosabatlarning qaror topishi kabi masalalar inobatga olinadi.[1]

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruxiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil kilish, shuningdek, talabalar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malaka darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogika fanida o'qitish jarayonining ikki tomonlama – talaba tomonidan bajariladigan o'quv faoliyati va o'qituvchining o'rgatuvchanlik faoliyati yig'indisidan iborat ekanligi e'tirof etiladi. Bu qoidani amalga oshirishning yangi modeli ishlab chiqildi va modelni amaliyotga tadbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liq. [2]

Pedagogik texnologiyalardan foydalanish bir necha asr oldindanrivojlanib kelgan. Misol tariqasida XVII asrda Yan Amos Komenskiy o'z tadqiqotlarida, ta'lim jarayonining shunday mexanizmi ustida izlanishlar olib bordiki, to'g'ri taqsimlangan "vaqt, usul va jarayonlar" amalda kutiladigan natijani berishi kerak. Bunday mexanizmni Ya.A.Komenskiy **"Didaktik mashina"** deb atadi. Bunday didaktik mashina uchun:

1. Maqsadning aniq qo'yilishi.
2. Aniq maqsadga erishish uchun vositalarning to'g'ri tanlanishi.
3. Vositalardan to'g'ri foydalanish uchun esa, aniq qoidalarga amal qilinishi lozimligini yozgan.[3]

Published: 10.11.2023

Cite this article: Raxmonov Abduxalim Toshpo'lat o'g'li, Jamoliddinov Fayozbek Abduvohid o'g'li (2023). Texnika fanlarini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24318394

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

XX asr 30-yillarida pedagogik jarayonda axborotni taqdim etishning eshitish va ko‘rish (audio-vizual) vositalari qo‘llanildi.

O‘quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ishlab chiqarishdan andoza sifatida qabul qilib olindi.

«Texnologiya» yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib “techne” - mahorat, san’at, malaka va “*logos”* - so‘z, o‘qitish ma’nolarini anglatadi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi:

- xomashyo, material, yarim tayyor mahsulotlarni olish, ularni qayta tayyorlash yoki ularga ishlov berish *yo‘l va usullarining yig‘indisi* (texnologiyani ***jarayonli-bayonli jixati***);

“Pedagogik texnologiya” – ta’limni texnologiyalashtirish sohasida pedagogik hodisa va jarayonda qo‘llaniladigan tushunchadir.

O‘qitishni texnologiyalashtirish - bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida o‘qitish maqsadlariga erishishning eng maqbul usul va vositalarni tadqiq qiluvchi, qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir. (2) bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta’limiy maqsadlarga erishishning yo‘lidir.

“Ta’lim texnologiyasi” –o‘z oldiga o‘qitish shakllarining maqbul vazifasini qo‘yuvchi, texnik va insoniy manbalar (resurslar) va ularning o‘zaro harakatini hisobga olgan holda ta’lim berish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonlarini aniqlash hamda qo‘llashning yaratuvchi tizimli usulidir (YUNESKO). [4]

Hozirgi vaktda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chikib tanlash maksadga muvofik sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda Aqliy hujum, kichik guruxlarda ishlash, baxs-munozara, muammoli vaziyat, yunaltiruvchi matn, loyixa, rolli uyinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

“INSERT” jadvali - Mustaqil o‘qish vaqtida olgan ma’lumotlarni, eshitgan ma’ruzalarni tizimlashtirishni ta’minlaydi; olingan ma’lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatishni amalga oshiradi. Avval o‘zlashtirgan ma’lumotlarni bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Jadvaldan foydalanilganida talabalar o‘qish jarayonida olingan ma’lumotlarni alohida o‘zlari tizimlashtiradilar - jadval ustunlariga matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq “kiritadilar”:

“V”- men bilgan ma’lumotlarga mos;

“-“ - men bilgan ma’lumotlarga zid;

“+” - men uchun yangi ma’lumot;

“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to‘ldirish talab etiladi.

To‘ldirilgan jadval asosida o‘qituvchi mavzu asosida talabalar bilimini va ularning

o‘zlashtirish darajasini baxolaydi

“**Kichik guruhlarda ishlash**” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maksadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshirikni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruxlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi; muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi ; vaqtni tejash imkoniyati mavjud; barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi; o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baxo olish extimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past buladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- gurux ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin

Interaktiv o‘qitish texnologiyalari

Hozirgi vaktda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chikib tanlash maksadga muvofik sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda Aqliy hujum, kichik guruxlarda ishlash, baxs-munozara, muammoli vaziyat, yunaltiruvchi matn, loyixa, rolli uyinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.
2. O‘zbekiston Respublkasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. - T.:2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni.
3. www .maplest.narod.ru
4. www.maplesoft.com